

Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida Viloyatda 3394 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1287 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2490 ta (15,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 18115 tani tashkil etgan.

**Ro'yxatdan o'tganlar
19093 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotganlar
18115 ta**

**Yangi tashkil etilganlar
3394 ta**

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 14805 ta bo'lib, yil davomida 3024 ta yangi tashkil etildi.

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi
156 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.**

O'tgan yilga nisbatan 582 ta korxona va tashkilotlar kam tugatilgan



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnda, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lg'a qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2023	1873	545
	Sanoat	2754	2625	545
	Qurilish	2013	1899	442
	Savdo	4087	3823	590
	Tashish va saqlash	1215	1149	140
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1271	1202	312
	Axborot va aloqa	220	207	38
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	503	495	89
	Boshqa turlari	5007	4842	693



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 19093 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 21,4 % savdo, 14,4 % sanoat, 10,6 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 10,5 % qurilish, 6,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,4 % tashish va saqlash, 2,6 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar , 1,2 % axborot va aloqa hamda 26,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (6098ta), G'ijduvon (2033ta), Romitan (1455 ta) va Buxoro (1455ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Kogon shahri (662 ta), Olot (621 ta) hamda Qorovulbozor (357 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda.

01.01.2017 yil

15856

01.01.2018 yil

16538

01.01.2019 yil

19093



■ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **18115** tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2490 ta (15,9 %) ga o'sgan.


01.01.2018 y.
15625 ta

01.01.2019 y.
18115 ta

O'tgan yilga nisbatan
2490 taga oshgan


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 21,1 % savdo, 14,5 % sanoat, 10,5 % qurilish, 10,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,3 % tashish va saqlash, 1,1 % axborot va aloqa, 2,7 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)**



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (5931 ta), G'ijduvon (1870 ta), Romitan (1414 ta), Buxoro (1306 ta) va Jondor (1213 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Qorovulbozor (349 ta), Olot (540 ta) hamda Kogon sh. (641 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

01.01.2017 y.

- 14809 ta

01.01.2018 y.

- 15625ta

01.01.2019 y.


- 18115 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 3394 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 61,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Buxoro shahri (1072 ta), Romitan (367 ta), G'ijduvon (295 ta) va Buxoro (245 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Qorovulbozor (80 ta), Olot (100 ta) hamda Vobkent (124 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (590 ta), sanoat (545 ta), qurilish (442 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (545 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (38 ta) sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (89 ta), hamda tashish va saqlash (140 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Umumiy soni	ulushi, %	Umumiy soni	ulushi, %	Umumiy soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	1914	100	2107	100	3394	100
Savdo	451	23,6	330	15,7	590	17,4
Sanoat	304	15,9	471	22,4	545	16,1
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	296	15,5	417	19,8	545	16,1
Qurilish	233	12,2	228	10,8	442	13,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	177	9,2	212	10,1	312	9,2
Tashish va saqlash	169	8,8	98	4,7	140	4,1
Axborot va aloqa	54	2,8	31	1,5	38	1,1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	43	2,2	68	3,2	89	2,6

Boshqa turlari

187 9,8 252 11,8 693 20,4

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda


Yili	Soni
01.01.2017 y.	1914
01.01.2018 y.	2107
01.01.2019 y.	3394



❖ TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 14934 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3056 ta, oilaviy korxonalar – 961 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10556 ta va boshqalar 361 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



❖ Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 156 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 65 taga yoki 17,1 % ga o'sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 102 tasi qo'shma korxonalar, 54 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Shahar va tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar (86 ta yoki jamidagi ulushi 55,1 %), Kogon tumani (11 ta yoki 7,1 %) va Buxoro tumani (10 ta yoki 6,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qorovulbozor tumani (2 ta yoki 1,3 %), Shofirkon tumani (2 ta yoki 1,3 %), G'ijduvon tumani (4 ta yoki 2,6 %) va Qo'rako'l tumani (5 ta yoki 3,2 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 83 tani (53,2 %), savdoda 25 tani (16,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 16 tani (10,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 tani (0,6 %), sog'liqni saqlash va

ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 tami (1,3 %), qurilish 7 ta (4,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi 8 tani (5,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 14 tani (9,0 %) tashkil qilgan. Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlashda hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'gri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 64 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 12 ta, Turkiya Respublikasi – 13 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 6 ta va Koreya Respublikasi – 8 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimida ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (25 ta), savdo (12 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (7 ta), qurilish (5 ta) va boshqa faoliyat turlari (15 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish dinamikasi,birlikda

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %
Sanoat	11	61,0	25	39,0
Savdo	1	5,6	12	18,8
Qurilish	1	5,6	5	7,8
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1	5,6	7	10,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0	0	7	10,9
Axborot va aloqa	0	0	0	0
Tashish va saqlash	0	0	1	1,6
Sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0	1	1,6
Boshqa turlari	4	22,2	6	9,4



Kichik korxona va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14805 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 17,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 5091 tasi (34,4 %) Buxoro shahri, 1533 tasi (10,4 %) G'ijduvon, 1184 tasi (8,0 %) Romitan hamda 1090 tasi (7,4 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14805 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3790 tasi (25,6 %) – savdo, 2589 tasi (17,5 %) - sanoat, 1877 tasi (12,7 %) - qurilish, 1827 tasi (12,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1194 tasi (8,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1139 tasi (7,7 %) - tashish va saqlash, 418 tasi (2,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 193 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1778 mingtasi (12,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 3024 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 51,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahri (987 ta), Romitan (334 ta), G'ijduvon (260 ta) va Buxoro tumanilari (221 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor (74 ta), Olot (86 ta) hamda Vobkent (103 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (588 ta), sanoatda (543 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (538 ta) va qurilishda (442 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (38ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (89 ta), hamda tashish va saqlashda (139 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni


 Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 1015 tani tashkil etib, ulardan 961 tasi yoki 94,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 42,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,2 % yoki 309 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 29,0 % yoki 279 tasi sanoat, 14,3 % yoki 137 tasi savdo, 12,7 % yoki 122 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi, 2,4 % yoki 23 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 11 tasi qurilish, 0,9 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 7 tasi axborot va aloqa hamda 6,7 % yoki 64 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda sanoat eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Tugatilgan korxona va tashkilotlar

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 885 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.


Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -582 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator isloh otlar amalga oshirilmoxda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 1563 ta, 2017 yilda 1467 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini ya kunlagan bo'lsa, 2018 yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 885 tani tashkil etgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 885 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 234 tasi (26,4 %) savdo, 156 tasi (17,6 %) sanoat, 93 tasi (10,5 %) qurilish, 112 tasi (12,7 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 70 tasi (7,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 66 tasi (7,5 %) tashish va saqlashda, 17 tasi (1,9 %) axborot va aloqada, 9 tasi (1,0 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 128 tasi (14,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yichasoni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	1467	100,0	885	100,0	-582
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	134	9,1	112	12,7	-22
Sanoat	153	10,4	156	17,6	+3
qurilish	159	11,0	93	10,5	-66
savdo	389	26,5	234	26,4	-155
tashish va saqlash	78	5,3	66	7,5	-12
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	78	5,3	70	7,9	-8
axborot va aloqa	24	1,6	17	1,9	-7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	285	19,4	9	1,0	-276
boshqa turlari	167	11,4	128	14,5	-39

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 858 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -277 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 234 tasi (27,3%) savdo, 156 tasi (18,2 %) sanoat, 109 tasi (12,7 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 93 tasi (10,8 %) qurilishda, 70 tasi (8,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 66 tasi (7,7 %) tashish va saqlashda, 17 tasi (2,0 %) axborot va aloqada, 9 tasi (1,0 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 104 tasi (12,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quватлаш natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Buxoro shahrida -178 ta, G'ijduvonda -57 ta, Romitanda -38 ta hamda Shofirkon tumanida -25 ta kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-83-20 (21)